

20-May, 2026-yil

**INSON HUQUQLARINING JINOIY BUZILISHI UCHUN
JAVOBGARLIKNING MILLIY VA XALQARO JINOYAT SUDI TOMONIDAN
TAHLILI**

Xudoyberdiyev Samandar

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat-odil sudlov fakulteti talabasi

samandarxudoyberdiyev687@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC)ning tashkil etilishi, huquqiy asoslari va inson huquqlarining jiddiy buzilishlari (genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va agressiya) uchun shaxsiy jinoiy javobgarlik masalalarini tahlil qiladi. Muallif xalqaro va milliy jinoyat huquqining o‘zaro ta’siri, ICCning Rim Statuti asosidagi yurisdiksiyasi, inson huquqlari himoyasidagi xalqaro hujjatlar (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, ICCPR, Qiynoqlarga qarshi konvensiya, Jeneva konvensiyalari) va milliy tizimlarning integratsiyasini ko‘rib chiqadi. Realizm va liberalizm nazariyalari orqali davlat suvereniteti va xalqaro adolat o‘rtasidagi ziddiyatlar muhokama etiladi. Misol sifatida Sudan sobiq prezidenti Umar al-Bashir ishi keltirilib, ICCning davlat rahbarlari immunitetini bekor qilish prinsipi ta’kidlanadi. Xulosada ICC faoliyatini takomillashtirish, milliy sudlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va O‘zbekistonning Rim Statutini ratifikatsiya qilishi taklif etiladi. Maqola xalqaro jinoyat huquqining dolzarbligini va inson huquqlarini global himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar. Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC), Rim Statuti, Inson huquqlari buzilishi, Genotsid, Insoniyatga qarshi jinoyatlar, Urush jinoyatlari, Jinoiy javobgarlik, Shaxsiy javobgarlik prinsipi, Davlat suvereniteti, Milliy va xalqaro jinoyat huquqi, Umar al-Bashir ishi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Qo‘shimchalik prinsipi (complementarity), O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi

KIRISH

Bugungi rivojlangan dunyoda inson huquqlarini ta’minlash va ularni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish insoniyat oldidagi eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so‘ng butun dunyoda tinchlikni ta’minlash va inson huquqlarini turli tajovuzlardan himoya qilish uchun ko‘plab **BMT, ICC, ICJ, Unisef, MDH, YXHT** va boshqa shu kabi xalqaro tashkilotlar tuzildi. Eng avvalo, bu sohadagi eng katta tub burilish sifatida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini** aytib o‘tishimiz lozim. Mazkur deklaratsiyada insonlarning shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari keltirilgan bo‘lib bu deklaratsiya keyingi barcha inson huquqlarini ta’minlash borasidagi xalqaro hujjatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bejizga ushbu deklaratsiya mustaqil O‘zbekiston

20-May, 2026-yil

Respublikasi tashkil topganidan so‘ng imzolagan birinchi xalqaro hujjat emas. Deklaratsiyada belgilangan huquqlarning buzilishi esa xalqaro jinoyatlar sirasiga kiradi. **Xalqaro jinoyatlar** deb insoniyat uchun xavfli bo‘lgan, shaxsni himoyalash, xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlarini, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi. Ana shunday xalqaro jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, ularga qarshi kurashish va barham berish uchun ham xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti ya’ni **Interpol** tashkiloti tuzilgan. Shu bilan birga bunday turdagi **xalqaro jinoyatlarni** sodir etgan subyektlarga adolatli hukm chiqarish va jazo tayinlash uchun **Xalqaro jinoyat sudi (ICC)** tashkil etilgan.

Xalqaro jinoiy sudning (ICC) tashkil etilishi xalqaro jinoiy sudlovning tuzilishida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. U Nyurnberg va Tokio sudlari tomonidan joriy qilingan, shuningdek, Sobiq Yugoslaviya va Xalqaro jinoiy ishlar bo‘yicha xalqaro tribunalning (ICTY) tashkil etilishi bilan ilgari surilgan xalqaro sudlar tomonidan xalqaro jinoyat huquqini bevosita qo‘llash tizimini keskin rivojlantirdi.²⁸ Xullas, xalqaro jinoyat huquqini tartibga solish va uning tizimlashtirish uchun ko‘plab ishlarning amalga oshirilayotganining o‘zi ham xalqaro jinoyat huquqining qanchalik dolzarb va muhimligidan darak beradi. Inson huquqlarining buzilganligi uchun jinoiy javobgarlikning xalqaro va milliy tizimlari, ularning o‘xshash va farqli jihatlari, shu bilan birga bu ikki tizimning o‘zaro aloqalari va hamkorligi borasidagi masalalarni tahlil qilish va bu boradagi ziddiyat va kamchiliklarga takliflar berish. Bundan tashqari, inson huquqlarining xalqaro himoyasini ta’minlaydigan **Xalqaro jinoyat sudining (ICC)** tizimini va uning qay darajada o‘z vazifalarini bajara olayotganligini tahlil qilish, bu borada sud amaliyotlarini ko‘rib chiqish, insonlar huquqlarining himoya qilinishi uchun qay darajada harakat qilinayotganligini va bu mexanizmni yanada rivojlantirish uchun qanday choralar ko‘rish kerak ekanligini ko‘rib chiqamiz.

Asosiy qism. “Jinoyat” tushunchasi, “jinoyat huquqi” tushunchasi kabi davlatning ichki holatidan kelib chiqadi. Bunga o‘ta og‘ir va jamiyat uchun xavfli huquqqa zid harakatlar kiradi. “Jinoyat” tushunchasini xalqaro huquqning ilk rivojlanish bosqichlarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Qadimgi Rossiya bilan Vizantiya o‘rtasida tuzilgan shartnomada ruslar tomonidan Vizantiyaga va yunonlar tomonidan Rossiyaga qarshi sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan. 911-yilda imzolangan ushbu shartnomada qotillik, o‘g‘rilik, talon-tarojlik, qasddan qilingan yovuz harakatlar uchun javobgarlik masalalari nazarda tutilgan.²⁹

Shuni aytish o‘tish lozimki, xalqaro va milliy jinoyat huquqining bir-biriga ta’siri kuchli. Xalqaro jinoyat huquqi milliy huquqqa ta’sir o‘tkazib, xalqaro jinoyatlar (genotsid, urush jinoyatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar va h.k.) milliy jinoyat qonunchiligiga

²⁸ Sato H. Modes of international criminal justice and general principles of criminal responsibility //Goettingen J. Int'l L. - 2012. - T. 4. - C. 765.

²⁹ Сахаров А.Н. Дипломатия Древней Руси. - М., 1980. - С. 167.

20-May, 2026-yil

kiritilishi orqali milliy jinoyat huquqini to‘ldirib borishga xizmat qiladi. Jumladan, muayyan qilmishning xalqaro-huquqiy hujjatlarda jinoyat sifatida e’tirof etilishi milliy jinoyat huquqida ham mazkur qilmishning jinoyat sifatda baholanishiga o‘ziga xos huquqiy zamin yaratadi. Jumladan, 1957-yilgi Ekstraditsiya to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi asosida ko‘pgina davlatlarning ikki tomonlama shartnomalari va milliy qonunchiliklarida rivojlantirildi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi ham Ekstraditsiya to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasiga tayangan holda, 2019-yil 20-avgustda **O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasida Ekstraditsiya to‘g‘risida** bitim imzolagan.

Xalqaro jinoyat sudi va inson huquqlarining himoyasi masalasida realizm va liberalizm kabi turli nazariy yondashuvlar mavjud. **Realistlar** xalqaro jinoyat sudi vakolatlarini cheklash kerakligini va davlatlarning suverenitetini mustahkamlash lozimligini ilgari surishadi. Ularning fikricha, xalqaro sudlar davlatlarning suverenitetiga tahdid soladi va ular mustaqil davlatlar siyosiy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. **Liberal** nazariyotchilar esa ICC va xalqaro sud tizimlarining mavjudligini inson huquqlari himoyasi uchun zaruriy deb hisoblaydi. Ular xalqaro jinoyat sudining vakolatlarini kengaytirishni va xalqaro hamjamiyatning adolatni ta'minlashdagi roli muhim ekanligini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuvlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik belgilash jarayonini qiyinlashtiradi, biroq mazkur ziddiyatlar xalqaro huquqni rivojlantirishda yangi nuqtai nazarlarni keltirib chiqaradi. Bu ikki nazariyani tahlil qiladigan bo‘lsak, xalqaro jinoyat sudi xalqaro jinoyat sodir etgan subyektlarni javobgarlikka tortadi. To‘g‘ri bu bir tarafdin davlatlarning suverenitetining buzilishiga olib kelgandek ko‘rinishi mumkin, aslida esa, xalqaro jinoyat subyektlarining ma’lum bir davlatning milliy yurisdiksiyasi orqali javobgarlikka tortish ham katta xato hisoblanadi, chunki butun insoniyat manfaatlariga zarar yetkazgan shaxslar yoki davlatlar albatta qaysidir davlatning milliy qonunchiligi bo‘yicha emas balki xalqaro normalar orqali javobgarlikka tortilishi eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Milliy va xalqaro huquqdagi jinoyatlarni taqqoslashdan oldin ularga ta’rif berib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Milliy qonunchiligimiz bo‘yicha **O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida** keltirilganidek, jinoyat bu ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. **Xalqaro jinoyatlar** deb esa insoniyat uchun xavfli bo‘lgan, shaxsni himoyalash, xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlarini, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi. **Xalqaro Jinoyat Sudining Rim Statutida** quyidagi nomlar bilan xalqaro jinoyat turlari belgilangan:

- **Genotsid:** milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to'liq yoki qisman yo'q qilishga qaratilgan harakatlar.

- **Insoniyatga qarshi jinoyatlar:** tinch aholiga qarshi keng tarqalgan yoki tizimli hujumlar, jumladan, qotillik, qullik, qiynoqlar va boshqa og'ir zo'ravonliklar.

- **Urush jinoyatlari:** urush qonunlari va urf-odatlarini buzish, shu jumladan tinch aholini nishonga olish, taqiqlangan qurollardan foydalanish va xalqaro gumanitar huquqning boshqa buzilishi.

- **Agressiya:** Bir davlat tomonidan boshqa davlatning suvereniteti, yaxlitligi yoki mustaqilligiga qarshi qurolli kuch ishlatish.³⁰

Milliy va xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlikni ko‘rsak, milliy qonunchilik bo‘yicha **O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasida** keltirilgan jazo turlaridan biri qo‘llaniladi. Xalqaro huquqda esa, davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi ikki turda bo‘linadi, bular- moddiy va nomoddiy. Lekin ko‘plab adabiyotlarda nomoddiy javobgarlik o‘rniga siyosiy javobgarlik termini ishlatilmoqda. Siyosiy javobgarlikning eng keng tarqalgan turlaridan biri bu sanksiyalardir. **Sanksiyalar** – huquqbuzar davlatga nisbatan ko‘riladigan chora. U xalqaro tashkilotlar (universal va mintaqaviy), bir guruh davlatlar yoki alohida davlat tomonidan qo‘llanishi mumkin. Sanksiyalarning hajmi va turlari jinoyatning og‘irlik darajasiga bog‘liq. Masalan, agressor davlatga nisbatan quyidagi majburlov choralari qo‘llanishi mumki, bular suverenitetini vaqtincha cheklab qo‘yish, hududining bir qismini ajratib olish, urushdan keyingi okkupatsiya (harbiy kuchlardan mahrum qilish) va qurolli kuchlar tarkibini qisqartirish yoki ularga ega bo‘lishni taqiqlash, agressor davlatning tinchlik va insoniyatga qarshi harbiy jinoyat sodir etganlikda aybdor jismoniy shaxslarni odil sudlovga tortish bo‘yicha yurisdiksiyasini cheklab qo‘yish va boshqalar.³¹

Moddiy javobgarlikka keladigan bo‘lsak, moddiy javobgarlik bir nechta turlarga bo‘linadi. Bular: *reparatsiya, restitutsiya, retorsiya, repressaliya (harbiy bo‘lmagan), satisfaksiya va restoratsiyalardir*. Bularning barchasi tub ma‘noda davlatning ko‘rgan moddiy zararini qaytarish usullari hisoblanadi. Mana masalan, **reparatsiya** bu ko‘rilgan moddiy zararni pul yordamida yoki tovarlar va xizmatlar yordamida qoplash hisoblanadi. **Restitutsiya** esa urushayotgan davlatning dushman davlat hududidan xalqaro huquqqa zid tarzda olib qo‘yilgan hududdan olib chiqilgan mulkni qaytarish hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro huquqda davlatlar o‘rtasidagi nizolarni va davlatlarni javobgarlikka tortish masalasini ko‘pincha BMTning Xalqaro Sudi yoki boshqa xalqaro sudlar, arbitraj sudlari ko‘rib chiqadi. Lekin ICC davlatlarni bevosita javobgarlikka torta olmaydi. Xalqaro huquq doirasidagi jismoniy shaxslar ham xalqaro jinoiy javobgarlikning subyekti bo‘lishi mumkin. Jismoniy shaxslar xalqaro jinoyatlar (genotsid, irqchilik, agressiya va boshqalar) yoki xalqaro xarakterdagi jinoyat (qaroqchilik, pul belgilarini qalbakilashtirish, samolyotlarni olib qochish va boshqalar) sodir etgan taqdirda jismoniy shaxslar ko‘pincha davlatlar va jinoiy guruhlardan alohida holda javobgar bo‘ladi. Mansabdor shaxslarning bunday jinoyatlarni sodir etishi esa og‘irlashtiruvchi holatlar sirasiga kiradi. Xalqaro jinoyatlar uchun shaxsiy jinoiy javobgarlik prinsipi ham mavjud. Xalqaro Harbiy Tribunal Nizomi

³⁰ Rome Statute of the International Criminal Court (1998).

³¹ Xalqaro jinoyat huquqi: Darslik / Ma’sul muharrir y.f.d. B.I. Ismailov. – T.: TDYU, 2019.

20-May, 2026-yil

insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan hamda harbiy jinoyatlar uchun javobgar shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish va jazolash uchun ishlab chiqilgan edi. Tribunal ushbu huquqni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishda xalqaro jinoyat huquqi to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanishini ta’kidladi. Mazkur prinsip xalqaro huquq doirasidagi jinoyatlarni taqiqlashdagi mohiyatini to‘ldirish bilan birga, bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning javobgarlikka tortilishi va jazolanishni ta’minlaydi. Xalqaro huquq doirasidagi jinoyatlarni sodir etganlikda shaxslarning ayblanishi va javobgarlikka tortilishi prinsipi quyidagi hujjatlarda o‘z tasdig‘ini topgan:

– 1993-yil 22-fevralda Sobiq Yugoslaviya hududida sodir etilgan xalqaro gumanitar huquqning buzilishi kabi jinoyatlar uchun javobgarlikka tortish maqsadida tashkil etilgan Xalqaro Tribunal Nizomining 7 va 23-moddalarida;

– 1994-yil 1-yanvardan 1994-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan vaqt mobaynida Ruanda va qo‘shni mamlakatlar hududida sodir etilgan genotsid, xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishi jinoyati sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortuvchi Xalqaro Tribunal Nizomining 6-22 - moddalarida;

– BMTning 1950-yildagi “Nyurnberg tribunali Nizomi tomonidan tan olingan va bu Tribunalning yechimi aks ettirilgan xalqaro huquq prinsiplari”ni qabul qilish bo‘yicha o‘tkazilgan BMTning Xalqaro Huquq Komissiyasining 2-sessiyasida;

– 1954-yil insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan Jinoyat Kodeksi loyihasining 1-moddasida;

– Shaxsiy javobgarlik prinsipining yakuniy ko‘rinishi Xalqaro Jinoyat Sudi Statutining 25-moddasida aniqlashtirildi³². Xalqaro jinoyatlar sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish bilan Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC) shug‘ullanadi. Rim Statutida ham ICC faqatgina xalqaro jinoyat sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortishi keltirib o‘tilgan.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro ommaviy va xalqaro xususiy huquq bo‘yicha javobgarlik subyektiga aylanishlari mumkin. Ya’ni xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq normalarini buzgan taqdirda va o‘z ustaviga zid harakatlarni amalga oshirganida javobgarlik subyektiga aylanishadi. Xalqaro tashkilotlarga ham siyosiy ham moddiy javobgarlik yuklatilishi mumkin. Masalan, siyosiy javobgarlik xalqaro tashkilot biror davlatning huquqlarini kamsituvchi va yaxlitligini buzuvchi qarorlar chiqarganda va davlatlar bilan tuzilgan xalqaro shartnomalarni buzganda paydo bo‘ladi. Moddiy javobgarlik esa biror majburiyatlar bajarilmaganida, kontraktlar buzilganda vujudga keladi. Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC) va inson huquqlarining buzilishi uchun jinoiy javobgarlik mavzusi xalqaro va milliy qonunchilik asoslariga asoslari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu ramkalar birgalikda inson huquqlarini himoya qilishga, xalqaro jinoyatlar sodir etganlarni javobgarlikka tortishga va global miqyosda adolatni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu tahlil ICC ning tashkil etilishiga asos bo‘lgan huquqiy asoslarni, inson huquqlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi xalqaro huquqiy normalarni va milliy huquqiy tizimlarning ushbu xalqaro

³² Xalqaro huquq. Darslik. Mas’ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. -T.: TDYU nashriyoti, 2017. - 443 bet

20-May, 2026-yil

standartlarni o'z ichiga olish usullarini o'rganadi. Shuningdek, biz xalqaro va milliy qonunchilikdagi ushbu himoyalarni yanada rivojlantiruvchi so'nggi o'zgarishlarni muhokama qilamiz.³³

Xalqaro jinoiy sudning kelib chiqishi va huquqiy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, 2002 yilda tashkil etilgan Xalqaro jinoiy sud (ICC) xalqaro ahamiyatga molik og'ir jinoyatlarni ta'qib qiluvchi birinchi doimiy xalqaro tribunal bo'lib xizmat qiladi. Uning asosiy huquqiy hujjati 1998-yilda qabul qilingan va 2002-yil 1-iyulda kuchga kirgan Rim statutidir. Rim statuti ICC ga yuqorida keltirilganidek, to'rtta asosiy jinoyatlar toifasi: genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va agressiya bo'yicha yurisdiksiyani beradi. Ushbu jinoyatlarning har biri inson huquqlarining jiddiy buzilishini tashkil etadi va ICC og'ir jinoyatlar uchun shaxsiy javobgarlikni ta'kidlab, davlatlarni emas, balki shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish majburiyatini oladi.³⁴

Rim statuti ishtirokchi-davlatlarni tergov, hibsga olish va hukmlarni ijro etishda yordam berish orqali ICC bilan hamkorlik qilishga majbur qiladi. Shuningdek, u ICCga milliy sud tizimlari jinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortishga qodir bo'lmagan yoki xohlamagan hollarda o'z yurisdiksiyasini amalga oshirish vakolatini beradi. ICC mandatiga qo'shimcha ravishda, inson huquqlarini himoya qilish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni yuklash uchun xalqaro huquqiy hujjatlarning keng doirasi mavjud. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar shafeligida ishlab chiqilgan ushbu hujjatlar jinoiy javobgarlikka tortish va inson huquqlari buzilishining oldini olishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (UDHR) 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan muhim hujjatdir. U barcha odamlarga, jumladan, yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga taalluqli inson huquqlarining asosiy standartlarini belgilaydi; qiynoqlar va qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan ozod qilish; va xolis sud muhokamasi huquqi. Garchi yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, UDHR keyinchalik majburiy bo'lgan inson huquqlari shartnomalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi va xalqaro hamjamiyatda muhim ma'naviy va siyosiy ahamiyatga ega.³⁵

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICCPR) yuridik jihatdan majburiy bo'lgan shartnoma bo'lib, u davlatlardan hujjatda sanab o'tilgan huquqlarni hurmat qilish va ta'minlashni talab qiladi. Bu huquqlarga yashash huquqi, qiynoqlardan himoyalani, so'z va yig'ilish erkinliklari kiradi. ICCPR Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi orqali nazoratni ta'minlaydi, u davlatlar hisobotlarini ko'rib chiqadi va shikoyatlarni tekshiradi. Shunday ekan, ICCPR davlatlarni inson huquqlarini buzganliklari uchun javobgarlikka tortish uchun muhim vosita bo'lib, jinoiy javobgarlik uchun xalqaro huquqiy asos yaratadi.

³³ International Covenant on Civil and Political Rights (1966).

³⁴ Schabas, W. A. (2011). *An Introduction to the International Criminal Court*. Cambridge University Press.

³⁵ International Covenant on Civil and Political Rights (1966).

Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazolarga qarshi Konventsiya (1984). Ushbu konvensiya qiynoqlarni ochiqdan-ochiq taqiqlaydi va davlatlarga o'zlarining ichki huquqiy tizimlarida qiynoqlarni jinoyat deb hisoblashni buyuradi. Konventsiya davlatlardan o'z yurisdiksiyalari doirasida qiynoqlarni tergov qilish, ta'qib qilish va jazolashni talab qiladi. Ushbu konvensiya qiynoqlar bilan bog'liq inson huquqlari buzilishini bartaraf etishda hamda milliy va xalqaro darajada jinoiy javobgarlik asoslarini yaratishda muhim rol o'ynaydi.³⁶ O'zbekiston Respublikasi ham 1995-yilda ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilgan.

Jeneva konvensiyalari (1949) va qo'shimcha protokollar (1977). Jeneva konvensiyalari va ularning qo'shimcha protokollari qurolli to'qnashuv qonunlarini belgilaydi va harbiy harakatlarda ishtirok etmayotgan shaxslarni, shu jumladan tinch aholi va harbiy asirlarni himoya qilishga qaratilgan. Jeneva konvensiyalarini buzish, masalan, jangovar bo'lmagan shaxslarni nishonga olish xalqaro huquqqa muvofiq urush jinoyatlarini tashkil etadi. ICC Rim Statutiga muvofiq harbiy jinoyatlar bo'yicha yurisdiksiyaga ega bo'lib, xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishini ta'qib qilishning huquqiy mexanizmini ta'minlaydi.³⁷

Milliy huquqiy asoslar va inson huquqlarini ta'minlash uchun yuqorida muhokama qilingan xalqaro huquqiy standartlar samarali bo'lishi uchun ular milliy huquq tizimlari doirasida amalga oshirilishi kerak. Ko'pgina davlatlar xalqaro inson huquqlari normalarini o'zlarining ichki qonunlariga kiritadilar va shu bilan milliy sudlarga inson huquqlarini jiddiy buzganlik uchun shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatini beradi. Milliy yurisdiksiyalar jinoiy javobgarlikka tortishga qodir bo'lmagan yoki xohlamagan hollardagina ICC qo'llaniladigan ushbu qo'shimchalik tamoyili ICC faoliyati uchun juda muhimdir.

Xalqaro normalarni amalga oshirishda milliy qonunlarning roli haqida ham aytib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Rim statutiga va inson huquqlari bo'yicha boshqa shartnomalarga a'zo bo'lgan aksariyat mamlakatlar ushbu normalarni o'zlarining huquqiy kodekslariga kiritadilar. Milliy huquq tizimlari genotsid, qiynoqlar va urush jinoyatlari kabi jinoyatlarni o'zlarining ratifikatsiya qilingan shartnomalarida mustahkamlangan xalqaro majburiyatlari asosida ta'qib qilishi mumkin. Bunday yondashuv nafaqat ICCning ish yukini kamaytirishga yordam beradi, balki ichki sud tizimlarini inson huquqlari global standartlariga moslashtirish orqali mustahkamlaydi.

Qo'shma Shtatlar Rim statutining ishtirokchisi emas, lekin u o'z yurisdiksiyasi doirasida xalqaro jinoyatlarni hal qilish mexanizmlarini o'rnatgan. AQSh qonunchiligi inson huquqlari bo'yicha bir qancha muhim xalqaro hujjatlarni o'z ichiga oladi, masalan, Qiynoq qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun va Urush jinoyatlari to'g'risidagi qonun, bu mahalliy sudlarga inson huquqlari buzilishi bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish imkonini

³⁶ Universal Declaration of Human Rights (1948).

³⁷ Geneva Conventions (1949) and Additional Protocols (1977).

beradi. Qo'shma Shtatlar ICC yurisdiksiyasi haqida o'z e'tirozlarini saqlab qolgan bo'lsa-da, uning huquqiy tizimi shunga qaramay, sud mandatiga mos keladigan normalarni qo'llaydi.

Germaniyaning Xalqaro huquqqa qarshi jinoyatlar kodeksi (VStGB). Germaniya xalqaro inson huquqlari normalarini o'zining milliy huquqiy tizimiga to'liq integratsiyalashgan davlatga misol bo'la oladi. Germaniyaning Xalqaro huquqqa qarshi jinoyatlar kodeksi (Völkerstrafgesetzbuch yoki VStGB) Germaniya sudlariga jinoyatlar qayerda sodir bo'lganligi yoki ayblanuvchining fuqaroligidan qat'i nazar, genotsid, urush jinoyatlari va insoniyatga qarshi jinoyatlarni ta'qib qilish imkonini beradi. Ushbu keng yurisdiksiya doirasi inson huquqlarini buzgan aybdorlar chegaralardan qat'iy nazar, javobgarlikka tortilishi mumkinligi tamoyilini mustahkamlaydi.

Xalqaro va milliy qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlar so'nggi yillarda xalqaro hamjamiyat inson huquqlarining buzilishi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan bir qancha qonunchilikka erishdi. Ushbu o'zgarishlar rivojlanayotgan me'yorlar va inson huquqlarini global miqyosda himoya qilish bo'yicha ortib borayotgan majburiyatni aks ettiradi. Rim statutiga xalqaro jinoyat huquqida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun tuzatishlar kiritildi. Masalan, 2010 yilda agressiya jinoyati ta'rifi yakunlandi va bu jinoyat bo'yicha ICC yurisdiksiyasini berdi. Ushbu tuzatish xalqaro hamjamiyatning bosqinchilik urushlarining oldini olish va global tinchlikni mustahkamlashga sodiqligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, inson huquqlari va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun jiddiy oqibatlar olib kelishi mumkin bo'lgan ekotsid kabi jinoyatlar bo'yicha ICCning yurisdiksiyasini kengaytirish bo'yicha muhokamalar bo'lib o'tdi.

Inson huquqlari bo'yicha yangi milliy qonunchilikni qabul qilish. Ko'pgina davlatlar inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish uchun milliy qonunlarni kiritdilar yoki o'zgartirdilar. Masalan, yaqinda Fransiya Xitoyning Shinjon mintaqasida inson huquqlarini poymol qilishda ishtirok etgan shaxslarni javobgarlikka tortish imkonini beruvchi qonunni qabul qildi. Milliy qonunchilikdagi bu o'zgarish davlatlarga o'z chegaralaridan tashqarida sodir etilgan inson huquqlarining buzilishi uchun shaxslarni javobgarlikka tortish imkonini beruvchi ekstraterritorial yurisdiksiyaga nisbatan kengroq tendentsiyani aks ettiradi.

Yuqorida keltirilgan prinsiplar xalqaro jinoyat huquqida eng muhim prinsiplar hisoblanadi. Bu prinsiplar qat'iy belgilangan bo'lib ularni buzganlar uchun javobgarlik muqarrar hisoblanadi. Misol qilib, **Sudanning sobiq Prezidenti Umar Hasan Ahmad al-Bashir ishi** bo'yicha sud amaliyotini tahlil qilsak, Umar al-Bashirning ishi Xalqaro Jinoiy Sud (ICC)da muhim va tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Al-Bashir, Sudanning sobiq prezidenti, Darfurdagi fuqarolar urushi paytida yuzaga kelgan jinoyatlar uchun ICC tomonidan genotsid, harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarda ayblandi. 2003-yil aprel oyida El-Fasher aeroportiga qilingan hujumdan ko'p o'tmay, Umar al-Bashir va Sudanning boshqa yuqori martabali siyosiy va harbiy rahbarlari Darfurda Sudan hukumatiga qarshi chiqqan Sudan ozodlik harakati/ armiyasi, Adolat va Tenglik harakati hamda boshqa qurolli guruhlariga qarshi isyon kampaniyasini o'tkazish uchun umumiy rejani kelishib

oldilar. Bu harakatlarni 2008-yil 14-iyulgacha davom etdi. Kampaniya davomida Sudan Hukumat kuchlari insoniyatga qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar va genotsid jinoyatlarini sodir etganlar, xususan:

- ko'plab Fur, Masalit va Zagava guruhlariga mansub tinch aholi yashaydigan shahar va qishloqlarga ko'plab noqonuniy hujumlar uyushtirish hamda muntazam ravishda talon-toraj qilish;

- asosan, Fur, Masalit va Zagava guruhlariga tegishli bo'lgan minglab tinch fuqarolarni o'ldirish va qirg'in qilish;

- ushbu guruhlariga tegishli bo'lgan minglab fuqaro ayollarni zo'rlash;

- yuzlab, minglab tinch aholi, asosan, yuqorida ko'rsatilgan guruhlariga tegishli bo'lgan shaxslarni majburan topshirish;

- qiynoqqa solish;

Ushbu vaziyat bo'yicha 2005-yil 31-martgacha bo'lgan vaqt davomida BTMning Xavfsizlik kengashi Sudandagi vaziyat bo'yicha Darfur mintaqasidagi aholining huquqlarini ta'minlash maqsadida ICCga murojaat qildi. Chunki Sudan ICCga a'zo bo'lmaganligi uchun ular to'g'ridan-to'g'ri murojaat bilan chiqolmas edi. Xavfsizlik kengashi esa ICC Rim Statutining 13-moddasida keltirilganidek, Xavfsizlik Kengashi quyidagi holatlarda ICCga murojaat qilish huquqiga ega:

Agar Xavfsizlik Kengashi biror holatda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun ICCning faoliyatini boshlashini talab qilsa, u holda sudga murojaat qilish mumkin. Bu, asosan, urush jinoyatlari yoki xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi boshqa jinoyatlar sodir etilgan holatlarda amalga oshiriladi. Agar Rim Statutiga imzo chekmagan davlatlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzaga kelsa, Xavfsizlik Kengashi ularni ICCga yo'naltirishi mumkin (yoki sudga taqdim etishi). Ushbu modda bo'yicha ICC sudi Umar al-Bashirni hibsga olish to'g'risida orden chiqardi. Bunga javoban esa Umar al-Bashir davlat rahbari ekanligini va imunitet huquqi borligini takidlagan bo'lsada, ICC yuqorida keltirilganidek, Statutning 27-moddasida keltirilganidek, Immunitet va huquqiy qobiliyat: Hech kim xalqaro jinoiy sudga sudlanishdan yoki javobgarlikka tortilishdan ozod bo'lmaydi, hatto u yuqori davlat lavozimida bo'lsa yoki davlat tomonidan o'ziga immunitet yoki maxfiylik taqdim etilgan bo'lsa ham. Ushbu modda, jinoiy javobgarlikka tortish uchun yuqori lavozimdagi mansabdor shaxslar yoki davlat rahbarlariga nisbatan har qanday immunitetning bekor qilinishini nazarda tutadi, shuningdek, xalqaro jinoiy sud tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilish uchun yuqori lavozimdagi shaxslar, davlat rahbarlari yoki boshqaruvchilarning huquqiy holati va mavqei jinoiy javobgarlikni cheklamasligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Ushbu norma bo'yicha barcha shaxslar ICC oldida bir xil huquqqa ega ekanligi va hech qanday daxlsizlik va imunitet huquqi mavjud emasligi haqida keltirilgan. Sudan ICCga a'zo bo'lmagan bo'lsa bu vaziyatda Umar al-Bashirning imunitet huquqi ishlamasligini keltirib sharh berib o'tilgan. Bundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, xalqaro

20-May, 2026-yil

huquqda hech kim javobgarlikdan qochib qutula olmaydi, hatto davlat rahbarlari yoki yuqori lavozimdagi shaxslar ham imunitetga ega bo‘maydi va sudga tortilishi kerak.

ICC va kengroq xalqaro huquqiy baza inson huquqlarini himoya qilish va jiddiy buzilishlar sodir etganlarni javobgarlikka tortish bo‘yicha global sa‘y-harakatlarda muhim qadamdir. Rim statuti, UDHR, ICCPR va Qiynoqlarga qarshi konvensiya kabi xalqaro hujjatlar inson huquqlarini himoya qilish va ularni buzganlarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun yuqori standartlarni belgilaydi. Milliy huquqiy tizimlar bir-birini to‘ldiruvchi rol o‘ynaydi, xalqaro me‘yorlar mamlakat ichkarisida amalga oshirilishini va adolatning barcha darajalarda mavjudligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga ICC faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun ICC va milliy sudlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, ICC faoliyat doirasini kengaytirish, ya‘ni faqat shaxslarni emas balki davlatlar va xalqaro tashkilotlarni ham javobgarlikka tortadigan eng asosiy organga aylantirish kerak deb o‘ylayman. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi ham ICCga a‘zo bo‘lishi va Rim Statutini qabul qilish orqali inson huquqlarini ta‘minlashni yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 7.Сахаров А.Н. Дипломатия Древней Руси. – М., 1980. – С. 167.
2. Bassiouni, M. C. (2013). *Introduction to International Criminal Law*. Martinus Nijhoff Publishers.
3. Bassiouni, M. C. (2013). *Introduction to International Criminal Law*. Martinus Nijhoff Publishers.
4. Cassese, A. (2008). *International Criminal Law*. Oxford University Press.
5. Convention Against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment (1984).
6. Cryer, R., Friman, H., Robinson, D., & Wilmschurst, E. (2019). *An Introduction to International Criminal Law and Procedure*. Cambridge University Press.
7. Geneva Conventions (1949) and Additional Protocols (1977).
8. International Covenant on Civil and Political Rights (1966).
9. Sato H. Modes of international criminal justice and general principles of criminal responsibility //Goettingen J. Int'l L. – 2012. – T. 4. – С. 765.
10. Schabas, W. A. (2011). *An Introduction to the International Criminal Court*. Cambridge University Press.
11. Universal Declaration of Human Rights (1948).
12. Xalqaro huquq. Darslik. Mas‘ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017. – 443 bet